


# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 25-may, № 102 (8725)

Shanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# MAMLAKATIMIZ MAKTABLARINI BITIRUVCHI O‘G‘IL-QIZLARIMIZGA

Qadrli farzandlarim!

Bugun o‘z bilim va iste’dodi, kuch-g‘ayratini Yangi O‘zbekiston bunyodkori, jonajon yurtimizga munosib farzand bo‘lishdek ezgu maqsadga baxsh etishga bel bog‘lagan sizlar kabi navqiron yoshlarni maktab ta’limini muvaffaqiyatli tugatayotganingiz bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Mehribon ustozlaringiz va ota-onalaringiz sizlarga oq yo‘l tilab turgan mana shu qutlug‘ kunda mamlakatimizdagi barcha maktablarda “so‘nggi qo‘ng‘iroq”lar jaranglab, siz kabi minglab yoshlarimiz katta hayotga yo‘llanma olmoqdalar.

Haqiqatan ham, bugun sizlar ulkan imkoniyatlar taqdim etadigan butunlay yangi hayot ostonasida turibsiz. Bu yo‘lda tinimsiz izlanib, yangi marralar sari talpinish, dadillik va o‘zingizga qat’iy ishonch hissi doimo hamrohingiz bo‘lishi lozim.

Hamisha yodingizda tuting, har biringiz o‘ziga xos iste’dod sohibisiz, ularni ro‘yobga chiqarish esa avvalo o‘zingizga, tinimsiz intilish va izlanishlaringizga bog‘liq.

Shu o‘rinda sizning safingizda o‘qishni oltin va kumush medallar bilan tamomlayotgan yuzlab o‘g‘il-qizlarimiz borligini ta’kidlash o‘rinlidir.

Keyingi yillarda Yangi O‘zbekiston yoshlari turli fanlar, sport, san’at va adabiyot sohalarida o‘zining chuqur bilim va qobiliyatini yaqqol namoyon qilishmoqda.

Hayotda yuksak marralarni ko‘zlab turgan bunday serg‘ayrat va bilimdon farzandlarimizni yurtimizdagi millionlab o‘g‘il-qizlarimizga o‘rnak qilib ko‘rsatsak, arziydi.

Mamlakatimizda navqiron avlod vakillarini har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarishga juda katta e’tibor qaratilmoqda.

Chunki jonajon Vatanimizning kelajagi, uning taqdiri va taraqqiyoti bugun shinam sinfxona va auditoriyalarda qunt bilan ta’lim olayotgan yoshlarning qo‘lida. Ular ertaga O‘zbekistonni yanada kuchli, rivojlangan va baxtli davlatga aylantirish uchun o‘zlarining bor bilimi, iqtidori va kuch-g‘ayratini safarbar qilsa, ko‘zlagan maqsadlarimizga albatta erishamiz.

Ayni paytda mamlakatimizdagi ko‘plab zamonaviy oliygohlar, kasb-hunar maktablari va texnikumlar bitiruvchilarni o‘z bag‘riga chorlamoqda. Bu maskanlarda ularning ta’limni davom ettirib, yanada chuqurroq bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Aziz o‘g‘il-qizlarim!

Sizlar jonajon Vatanimiz shonli tarixining bir qismi, o‘z madaniyati va an’analarini asrlar davomida asrab-avaylab kelayotgan buyuk xalqning dilbandlari, Yangi O‘zbekistonning umidi va tayanchi hisoblanasiz. Yana bir bor ta’kidlab aytmoqchiman, davlatimizning ertangi taqdiri, uning ravnaqi va taraqqiyoti sizlarning qo‘lingizda.

Hech qachon orzu qilishdan to‘xtamang, katta maqsadlar yo‘lida imkoniyatlaringizni sinab ko‘rishdan, bu yo‘lda xato qilish va ulardan saboq olishdan qo‘rqmang. Chunki xalqimiz sizlarga katta umid va ishonch bilan qaramoqda.

Sizlarning yangi g‘oya va tashabbuslaringiz, ishtiyoqingiz va kuchingiz nafaqat O‘zbekistonni, balki butun dunyoni o‘zgartirishi mumkin. Shuning uchun har qanday holatda ham o‘z oldingizga qo‘ygan ezgu maqsadingizdan ortga chekinmang.

Har biringiz ustozlaringiz va ota-onangiz qalbingizga singdirgan qadriyatlarga hamisha sodiq bo‘lib, xalqimizning bebaho merosini yanada boyitishga, yurtimizning yorug‘ kelajagiga hissa qo‘shishga intiling.

Biz jahonga ilm-ma’rifat, ma’naviy boylik yetkazib bergan ne-ne ulug‘ zotlarning avlodimiz. Ularga xos bo‘lgan noyob xususiyatlar, ular yaratgan an’analar bugun har birimizning qalbimizda, ongimizda va hayotimizda yashamoqda.

Endilikda biz ana shu buyuk ajdodlarimizning chinakam davomchilari bo‘lgan qalbi qaynoq yoshlarimizning yuksak ma’naviy va intellektual salohiyati, ularning dunyoni lol qoldiruvchi yutuqlari bilan ham faxrlanishga haqlimiz.

Hech shubhasiz, hayotda yuksak natijalarga erishish uchun tinimsiz harakat, shijoat va jasorat talab etiladi. Sizlarning chuqur bilim olish, zamonaviy kasb-hunarlarni o‘rganish orqali Vatanimizga munosib farzandlar bo‘lib yetishishingiz va uning taqdiri uchun mas’uliyatni zimmangizga olishingizga ishonaman.

Bu sharafli yo‘lda barchangizga baxt va omad doimo yor bo‘lishini tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# ROSSIYA FEDERATSIYASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BO‘LADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 26-27-may kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ladi.**

Tashrif dasturida oliy darajadagi muzokaralar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Bo‘lajak uchrashuv kun tartibidan O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish masalalari o‘rin olgan.

Amaliy hamkorlikni kengaytirishga, eng avvalo, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, innovatsion hamkorlik dasturlarini qo‘llab-quvvatlash, faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Sammit yakunlari bo‘yicha ikki tomonlama hujjatlar to‘plamini qabul qilish rejalashtirilgan.

Davlat rahbarlari, shuningdek, O‘zbekiston va Rossiya hududlari kengashining birinchi yig‘ilishida ishtirok etadilar.

Tashrif arafasida Toshkent shahrida bir qator qo‘shma tadbirlar — yetakchi muhandislik-texnika oliy o‘quv yurtlari rektorlarining uchrashuvi, tibbiyot ilmiy-amaliy konferensiyasi va Rus san’ati haftaligi bo‘lib o‘tayotganini ta’kidlash joiz.

**O‘zA.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

# OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIGA O‘QISHGA QABUL QILISH VA DAVLAT BUYURTMASINI JOYLASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat buyurtmasini shakllantirish va davlat granti ajratish mexanizmlarini takomillashtirish, yoshlarning sifatli ta’lim olishlari uchun mavjud shart-sharoitlarni yaxshilash, kadrlar tayyorlashni iqtisodiyotning rivojlanayotgan tarmoq va sohalariga manzilli yo‘naltirish maqsadida:

1. Oliy ta’lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash bo‘yicha davlat buyurtmasini shakllantirish va joylashtirish bo‘yicha shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra:

a) 2024/2025 o‘quv yili qabulidan boshlab:

davlat buyurtmasi parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilinib, **bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida tasdiqlash** tartibi joriy etiladi, bundan oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari mustasno;

davlat buyurtmasi bo‘yicha kvotalar taqsimotida muhandislik, **tibbiyot, aniq va tabiiy fanlar bilim sohalariga ustuvorlik beriladi**;

davlat oliy ta’lim muassasalari uchun o‘rnatilgan tartib va shartlar bo‘yicha talabalar qabulini amalga oshiruvchi **oliy ta’lim tashkilotlariga davlat buyurtmasining taqsimotida ishtirok etishga ruxsat etiladi**. Bunda tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bir talaba uchun ajratiladigan mablag‘ moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida bir talaba uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdoridan oshmagan hajmda moliyalashtiriladi;

davlat granti kvotalarining oliy ta’lim tashkilotlari kesimida taqsimoti tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan abituriyentlarning tanlovi va to‘plagan ballariga ko‘ra amalga oshiriladi;

oliy ta’lim tashkilotlari moddiy-texnika bazasi, professor-o‘qituvchilari tarkibi va o‘quv-metodik ta’minotiga muvofiq, keyingi o‘quv yili uchun o‘z qabul parametrlarini shakllantiradi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etadi;

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta’lim tashkilotlari qabul parametrlari asosliligini o‘rganadi hamda ularni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasiga (keyingi o‘rinlarda — Davlat komissiyasi) kiritadi;

Davlat komissiyasi oliy ta’lim tashkilotlari, ta’lim shakllari va tillar kesimida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy qabul parametrlarini, imtiyozga ega abituriyentlar uchun qo‘shimcha qabul parametrlarini, maqsadli qabul kvotalarini hamda magistratura mutaxassisliklari qabul parametrlarini davlat granti va to‘lov-kontraktga ajratgan holda oliy ta’lim tashkilotlari va tillar kesimida tasdiqlab, Bilim va malakalarni baholash agentligiga taqdim etadi;

b) 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab har bir ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim tashkilotining umumiy qabul parametriga nisbatan davlat granti kvotasining ulushi ta’lim sohalari (bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari) kesimida Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi;

v) 2025-yildan boshlab **davlat buyurtmasi parametrlari** Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan shakllantiriladigan oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan talab prognoziga muvofiq ravishda **4 yillik davr uchun tasdiqlanadi**.

**(Davomi 2-betda).**

# YANGI O‘ZBEKISTONNING UMIDI VA TAYANCHI

***Bugun mamlakatimizdagi barcha umumta’lim maktabida “so‘nggi qo‘ng‘iroq” sadolari yangrab, 2023/2024 o‘quv yili yakunlanadi. Jonajon maktablarini tamomlayotgan 400 mingga yaqin yoshlar katta hayotga yo‘llanma oladi. Boshqa o‘quvchilar yana bir sinf yuqorilaydi.***

***Har bir insonning eng beg‘ubor, sof, o‘y-tashvishsiz o‘tgan damlari, xotiralari bolalik, ayniqsa, maktab davri bilan bog‘liq. “Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir”, deydi dono xalqimiz. Kamolot sari tashlangan birinchi qadam — aynan o‘quvchilik yillarida olingan ta’lim va tarbiyaning inson hayotidagi o‘rni beqiyos.***

**Ta’lim**

Shu ma’noda, yurtimizda o‘quvchi yoshlarning ilm olishi, barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun barcha zarur shart-sharoit yaratilmoqda. Asosiysi, ta’lim tizimidagi islohotlarning hammasi xalqimiz fikrini o‘rgangan holda ota-onalar, o‘qituvchi hamda murabbiylar, shuningdek, o‘quvchilarning tashabbus va takliflari asosida hayotga ko‘chyapti.

Keyingi yillarda ta’limning sifat va samaradorligini oshirish, o‘qituvchilarni ko‘proq o‘quv-tarbiyaviy jarayonga jalb etish maqsadida ortiqcha qog‘ozbozlikdan xalos etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

“Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi” degan shior asosida maktab ta’limini rivojlantirish, yuksak cho‘qqilar sari olib chiqish umumxalq harakatiga aylandi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘z farzandini o‘qitish istagidagi ota-onalar, ushbu ta’lim maskanlarida tahsil olishni xohlovchi o‘g‘il-qizlar safi borgan sayin oshmoqda. Umumta’lim maktablarida o‘qiyotgan yoshlarimiz ham ixtisoslashtirilgan bilim dargohlari o‘quvchilaridan aslo kam emasligini isbotlashga intilmoqda.




Hasan PAYDOYEV olgan surat.

Joriy o‘quv yili ham yangiliklarga boy va o‘zgacha shukuhda o‘tdi. Yurtimiz bo‘ylab yangi maktablar qurildi, aksariyati ta’mirlandi.

Mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim maskanlari va ularda bilim olayotgan o‘quvchilar soni ko‘paygani har qanday kishini quvontiradi. Bu yil respublikamiz bo‘ylab maktablar soni 10 163 taga, ularda kamol topayotgan o‘g‘il-qizlar soni esa 6 million 476 ming 91 nafarga yetdi.

➡ 4

**Tashrif oldidan**

O‘zbekiston — Rossiya:

# STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASH YO‘LIDA

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 26-27-may kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ladi.*

Mazkur tashrif ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yuksak darajasini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki bu Rossiya rahbarining mamlakat Prezidenti etib qayta saylanganidan keyin amalga oshirayotgan xorijiy tashriflarining dastlabkilaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston va Rossiya strategik sheriklardir. Mamlakatlarimiz o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 20-martda o‘rnatilgan. 2005-yilda ikki davlat Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomani, 2022-yilda esa Keng qamrovli strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiyani imzoladi.

Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘rnatilgan iliq va do‘stona munosabatlar turli ko‘rinishdagi muntazam aloqalar hamda telefon orqali muloqotlar bilan qo‘llab-quvvatlanib, siyosiy muloqotni faollashtirish va barcha sohada hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda 370 dan ortiq hujjatlardan iborat mustahkam shartnomaviy-huquqiy baza o‘zbek va rus xalqlarining taraqqiyoti hamda farovonligi yo‘lida o‘zaro manfaatli va ko‘p qirrali sheriklikni yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam asos bo‘layotir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu yil may oyi boshida Rossiyaga amaliy tashrifi va Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining yubiley yig‘ilishida kuzatuvchi davlat rahbari sifatida ishtirok etgani buning tasdig‘idir.

➡ 2

**Hamkorlik**

# MARKAZIY OSIYO YETAKCHI AYOLLARI MULOQOTI

*Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotida ayollarning roli: raqamli, ijtimoiy va ekologik innovatsiyalarni ilgari surish uchun yetakchilik” mavzuidagi Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti yig‘ilishida ishtirok etdi.*

Anjumanda Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlarining a’zolari, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi rahbari, davlat organlari, xalqaro va nodavlat tashkilotlari, biznes va ekspert hamjamiyatlari vakillari qatnashdi.

2021-yilda O‘zbekiston tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu muloqot mintaqadagi yetakchi ayollar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlashda muhim platforma hisoblanadi. 2021 — 2023-yillarda muloqotga O‘zbekiston, Turkmaniston va Qozog‘iston raislik qilgan.

Tadbirda “Kreativ iqtisodiyot: Markaziy Osiyoning innovator va ixtirochi ayollari — yangi yechimlar”, “Yashil” iqtisodiyot: ijtimoiy va ekologik innovatsiyalarni ilgari surishda ayollarning roli” hamda “Raqamli iqtisodiyot: ayollar va raqamli yechimlar” kabi mavzular ko‘rib chiqildi.

Ushbu yo‘nalishlarda mintaqaviy hamkorlik yuzasidan takliflar qizg‘in muhokama qilindi, davlatlardagi ijobiy tajribalar bilan o‘rtoqlashildi hamda birgalikda amalga oshiriladigan choralar yuzasidan kelishib olindi.

Shuningdek, tadbir yakunida ishtirokchilar tomonidan Qirg‘iziston raisligi davrida 2024-yilga mo‘ljallangan Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti bo‘yicha Harakatlar rejasi tasdiqlandi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston:

# PARLAMENTLAR O‘RTASIDAGI ALOQALAR FAOLLASHADI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva Bishkek shahriga amaliy tashrifi davomida Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag‘asi Nurlanbek Shakiyev bilan uchrashuv o‘tkazdi.*

Suhbat avvalida ikki davlat o‘rtasidagi yaqin qo‘shnichilik, vaqt sinovidan o‘tgan strategik hamkorlik munosabatlarining bugungi kundagi yuksak darajasiga to‘xtalib o‘tildi. Bunda ikki mamlakat Prezidentlarining qat’iy siyosiy irodasi hamda ochiq va o‘zaro ishonchga asoslangan do‘stona munosabatlari muhim poydevor bo‘layotgani e’tirof etildi.

Uchrashuv davomida parlamentlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo komissiya ishini faollashtirish, parlament nazorati institutidan samarali foydalangan holda oliy darajadagi kelishuvlar ijrosini ta’minlashga ko‘maklashish yuzasidan o‘zaro fikr almashildi.

Shuningdek, ikki davlat chegaraoldi viloyatlari rahbarlari Kengashi tadbirlarida mahalliy deputatlarning faol ishtirokini ta’minlash, hamkorlik samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha takliflar ilgari surildi.

Uchrashuv so‘ngida tomonlar xalqaro parlamentlararo tuzilmalar doirasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishga kelishib oldi.

**“Xalq so‘zi”.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

# OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIGA O‘QISHGA QABUL QILISH VA DAVLAT BUYURTMASINI JOYLASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisining 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga davlat grantini **ijtimoiy rag‘batlantiruvchi grant va ta’lim granti shaklida ajratish** to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

Belgilansinki:

a) ijtimoiy-rag‘batlantiruvchi grant qonunchilikda belgilangan imtiyoz bo‘yicha davlat granti asosida va maqsadli qabul doirasida talabalikka qabul qilingan talabalarga, shuningdek, tarmoq va sohalarning, davlat organlari va tashkilotlarining grantlari sohiblari uchun ajratiladi;

b) ta’lim granti davlat buyurtmasi parametrlari doirasida oliy ta’lim tashkilotiga qabul qilingan talabalar uchun ajratiladi;

v) 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab bakalavriat va magistraturaga qabul qilingan **talabalarga ta’lim granti bir o‘quv yili uchun** ajratiladi. Bunda:

ta’lim granti **birinchi kursda** oliy ta’lim tashkilotlariga ajratilgan davlat buyurtmasi kvotasiga muvofiq **kirish imtihonlarida yuqori ball to‘plagan talabalarga ajratiladi**;

ta’lim granti ikkinchi va undan keyingi kurslarda **yuqori akademik reyting ko‘rsatkichlariga erishgan va ijtimoiy faol talabalar** orasida oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan tabaqalashtirilgan tartibda qayta taqsimlanadi;

ta’lim granti tabaqalashtirilgan tartibda moliyalashtiriladi va **stipendiya faqat to‘liq ta’lim grantini yutgan talabalarga to‘lanadi**;

ijtimoiy-rag‘batlantiruvchi grant sohibi bo‘lgan talabalarga davlat granti ularning o‘qish davri uchun to‘liq hajmda taqdim etiladi;

ta’lim granti asosida tahsil olgan talabalarning o‘qishni tamomlaganlaridan so‘ng kamida **3 yil ishlab berish majburiyati bekor qilinadi**.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

a) davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilishning minimal o‘tish bali tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishining oldingi o‘quv yilidagi o‘rtacha o‘tish ballarini hisobga olgan holda Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi;

b) hududlar, sohalar va tarmoqlarning oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash uchun davlat buyurtmasi parametrlari doirasida **maqsadli qabul kvotalari** ajratiladi. Bunda:

davlat organlari va tashkilotlari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari maqsadli qabul buyurtmachilari hisoblanadi hamda kadrlarga bo‘lgan o‘z ehtiyojlarini Davlat komissiyasiga taqdim etadi;

hududlar kesimida maqsadli qabul tegishli hududda doimiy yashaydigan (doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan) hamda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarini tamomlagan abituriyentlar orasida tanlov asosida amalga oshiriladi;

maqsadli qabul kvotasi doirasida talabalikka tavsiya etilgan fuqaro bilan manfaatdor tuman (shahar) hokimiyati, sohaviy davlat organi (tashkiloti) va oliy ta’lim tashkiloti o‘rtasida to‘rt tomonlama shartnoma tuziladi. Bunda talabani ish bilan ta’minlash va uning o‘qishni yakunlagandan so‘ng muayyan hududda (tashkilotda) ishlab berishini monitoring qilish kadr buyurtmachisi zimmasiga yuklanadi;

v) 2024/2025 o‘quv yili qabulidan boshlab oliy ta’lim tashkilotlarining boshqa ta’lim shakllariga umumiy qabul parametri kunduzgi ta’lim shakli uchun belgilangan qabul kvotasidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda belgilanadi.

4. Belgilansinki, magistratura mutaxassisliklari va oliy ta’limdan keyingi ta’lim ixtisosliklariga qabul qilishda xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikatlar quyidagi darajalarda talab etiladi:

xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha — kamida **S1 darajasida**;

gumanitar, biologik va turdosh fanlar, matematika va statistika, biznes va boshqaruv, huquq, xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar, jurnalistika va axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim sohalari bo‘yicha — kamida **V2 darajasida**;

boshqa ta’lim sohalari hamda madaniyat va sport mutaxassisliklari (ixtisosliklari) bo‘yicha — kamida **V1 darajasida**.

5. 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab davlat oliy va professional ta’lim muassasalariga (kasb-hunar maktabi bundan mustasno) qabul qilish bo‘yicha imtihonlar **“avval test, so‘ng tanlov”** tamoyiliga muvofiq bir vaqtda o‘tkazilishi belgilansin. Bunda:

a) abituriyentlar o‘z tanloviga ko‘ra test sinovi natijasida to‘plagan balidan kelib chiqib, dastlab oliy ta’limning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga, so‘ng professional ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun tanlovda ishtirok etadi;

b) davlat oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga qabul jarayoni quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqichda abituriyentlar har yili **5-iyundan 25-iyunga qadar** (25-iyun kuni ham) test sinovi topshirish uchun ro‘yxatdan o‘tadi hamda test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, ta’lim tili va test topshirish hududini hamda kirish imtihonlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon bo‘lsa, ushbu imtihonni topshiradigan davlat oliy ta’lim muassasasini tanlaydi. Bunda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yagona kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturlari va baholash mezonlari tegishli vazirliklar (idoralar) tomonidan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi;

o‘qishga qabul qilish bo‘yicha kirish imtihonlari iyul-avgust oylarida o‘tkaziladi;

ikkinchi bosqichda abituriyentlar test sinovlari to‘liq yakunlanganidan so‘ng **15 kun** davomida oliy ta’lim muassasasi, bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va ta’lim shaklini tanlaydi;

v) 2025/2026 o‘quv yili qabulidan boshlab fanlar majmuasida chet tili birinchi fan sifatida belgilangan ta’lim yo‘nalishlariga qabul xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikat asosida amalga oshiriladi;

g) barcha davlat kollej va texnikumlariga **“avval test, so‘ng tanlov”** tamoyiliga muvofiq qabul qilishda abituriyentlar kollej va (yoki) texnikumni, kasb va mutaxassislikni hamda ta’lim shaklini oliy ta’lim muassasalariga qabulning yakuniy natijasi e’lon qilinganidan so‘ng **10 kun muddatda tanlaydi**.

6. Belgilab qo‘yilsinki:

imtihonsiz qo‘shimcha davlat granti asosida talabalikka tavsiya etish uchun asos bo‘luvchi imtiyozga ega abituriyentlar Davlat komissiyasining qaroriga asosan ta’lim shaklidan qat’i nazar, ro‘yxatdan o‘tishda imtiyoz amal qiladigan doirada tanlagan birinchi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi;

alohida qabul parametrlari doirasida tanlovda ishtirok etish uchun asos bo‘luvchi imtiyozga ega abituriyentlar (nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda “Mehribonlik” uylari, bolalar shaharchalari, SOS — bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylarining bitiruvchilari bo‘lgan yetim bolalar, shuningdek, vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalar (yigirma besh yoshga to‘lmagan) bundan mustasno) ular uchun ajratilgan alohida qabul parametrlari doirasida, tanlagan birinchi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tanlovda ishtirok etadi;

alohida qabul parametrlari doirasida tanlovda qatnashib, talabalikka tavsiya etilmagan abituriyentlar ro‘yxatdan o‘tishda tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy tartibda tanlovda ishtirok etadi;

xalqaro sport musobaqalari g‘oliblari jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga sport turlarining soha bo‘yicha mos kelishiga qat’iy rioya qilingan holda imtihonsiz qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi;

imtiyoz bilan davlat granti asosida talabalikka tavsiya etilgan abituriyentga ushbu imtiyozdan takroran foydalanishga ruxsat etilmaydi;

ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi, shuningdek, oliy ta’limning tegishli bosqichiga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilingan talabaga ikkinchi marta ta’limning ushbu bosqichi uchun davlat granti ajratilmaydi;

oliy ta’lim muassasalari, oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari hamda harbiy-akademik litseylarga o‘qishga kirishda imtiyozga ega bo‘lgan abituriyentlarning yagona bazasi har yili 1-iyunga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan Bilim va malakalarni baholash agentligining maxsus axborot tizimiga kiritish orqali shakllantirib boriladi.

7. Ijtimoiy himoya milliy agentligi har yili 1-iyunga qadar nogironligi bo‘lgan shaxslar, jumladan, ko‘zi ojizlarning ma’lumotlar bazasini nogironlik guruhini aniq ko‘rsatgan holda shakllantirsin hamda uni Bilim va malakalarni baholash agentligining axborot tizimi bilan integratsiya qilinishini ta’minlasin.

8. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Savdo-sanoat palatasi va ish beruvchilar uyushmalari bilan birgalikda:

2024-yil yakuniga qadar mehnat bozorida kutilayotgan o‘zgarishlarni ilmiy tadqiq qilgan holda o‘z ahamiyatini yo‘qotib boradigan hamda yangi paydo bo‘ladigan kasblar (lavozimlar) ro‘yxati, ularga qo‘yiladigan malaka talablari va kompetensiyalarni shakllantirsin;

2025-yil 1-mayga qadar jamlangan ma’lumotlar asosida **“O‘zbekiston yangi kasblar atlasi” elektron platformasi** yaratilishini hamda har yili yangilab borilishini ta’minlasin.

Ushbu bandni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilsin.

9. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi bilan birgalikda uch oy muddatda:

ta’lim grantini oliy ta’lim tashkilotlari talabalariga tabaqalashtirilgan tartibda bir o‘quv yili uchun ajratish tartibini belgilovchi Hukumat qarori loyihasini;

hududlar, sohalar va tarmoqlarning oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash uchun maqsadli qabul kvotalarini shakllantirish, qabul jarayonlarini tashkil etish va kadrlar buyurtmachilarining aniq vazifalarini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini;

qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

10. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A.Sharipov belgilansin.

Farmon ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 24-may

O‘zbekiston — Rossiya:

# STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASH YO‘LIDA

1

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston va Rossiya nafaqat ikki tomonlama asosda, balki xalqaro tuzilmalar — BMT, MDH, SHHT va boshqa global hamda mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham samarali hamkorlik qilayotganini ta’kidlash kerak.

Bugun rasmiy Toshkent va Moskva o‘rtasida barcha darajadagi jadal hamda keng ko‘lamli muloqotlar faol davom etmoqda. Bosh vazirlar darajasida qo‘shma komissiya, hukumatlararo komissiya va uning quyi qo‘mitalari faoliyat ko‘rsatmoqda, idoralararo va parlamentlararo hamkorlik, iqtisodiy va hududlararo aloqalar kengaymoqda.

Xususan, Oliy Majlis Senati va Federal Majlis Federatsiya Kengashi o‘rtasidagi yaqin aloqalar doirasida yuqori palatalar raislarining uchrashuvlari, jumladan, turli xalqaro tadbirlar doirasida muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o‘rtasidagi samarali almashinuvlar tizimli asosda rivojlanib borayotir. TIV rahbariyati doimiy ravishda ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazmoqda, shuningdek, xalqaro tadbirlar doirasida muloqot tashkil etilyapti. Bundan tashqari, ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o‘rtasida 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi imzolangan.

Hukumat rahbarlari darajasidagi Qo‘shma komissiya hamda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya faoliyatidagi konstruktivlik ushbu yo‘nalishdagi o‘zaro aloqalarning mavjud salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonini beryapti.

Siyosiy muloqotlarning muntazam ahamiyat kasb etayotgani iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qilayotir. Bu, o‘z navbatida, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmining jadal o‘sishi, iqtisodiyotning turli tarmoqlari investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish, yetakchi korxonalar, ishbilarmon doiralar va hududlar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini mustahkamlashda muhim omil bo‘lyapti.

2023-yil yakunlariga ko‘ra ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi salkam 10 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilning yanvar — aprel oylarida bu ko‘rsatkich qariyb 3,8 milliard dollarga yetib, 30 foizdan ziyodga o‘sdi.

O‘zbekistonda Rossiya korxonalari soni ham ortib bormoqda. Yurtimizda rus kapitali ishtirokidagi 2850 dan ortiq korxonalar faoliyat yurityapti. 2023-yil 4-oktabr kuni Qozon shahrida III hududlararo hamkorlik forumi bo‘lib o‘tdi. Forum yakunlari bo‘yicha 3,5 milliard AQSH dollarlik bitim va shartnomalar imzolandi.

Poytaxtimizda har yili o‘tkazib kelinayotgan “INNOPROM. Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi samarali maydonga aylandi. Ko‘rgazmada Rossiyaning yetakchi kompaniyalari delegatsiyalarining ishtiroki an’anaviylik kasb etayotganini ta’kidlash kerak.

Xususan, joriy yil 22-aprel kuni bo‘lib o‘tgan navbatdagi ko‘rgazmada Rossiyaning 25 dan ortiq hududlaridan vakillar va 400 dan ziyod xorijiy kompaniyalar rahbarlari qatnashdi. Iqtisodiy tadbir yakunlariga ko‘ra, umumiy qiymati 1,5 milliard dollarlik investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarini, jumladan, 562 million dollarlik 21 ta investitsiya loyihasini va bir milliard dollardan ortiq bo‘lgan 231 savdo shartnomasini amalga oshirish bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi.

Boy va rang-barang madaniy-gumanitar hamkorlik ham tahsinga loyiq. O‘zbekiston bugungi kunda Rossiya universitetlarining xorijiy filiallari soni bo‘yicha yetakchi hisoblanadi.

An’anaga ko‘ra so‘nggi besh yildan buyon ikki mamlakat oliy o‘quv yurtlari rektorlari forumi o‘tkazib kelinayotgani fan va ta’lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilayotir.

Mazkur shakldagi so‘nggi muloqot 2023-yil sentabr oyida Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan edi. Unda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar uchun ta’limni rivojlantirish va bugungi kunning asosiy yo‘nalishlaridan biri — ilg‘or muhandislik maktablarini yaratish va boshqa dolzarb mavzular muhokama qilindi. Shuningdek, ishtirokchilar eng murakkab muhandislik masalalarini hal etishga qodir, zamonaviy bilimlarni egallagan jahon darajasidagi mutaxassislarni tayyorlash masalalari xususida fikr almashdilar. Konferensiya yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston va Rossiya oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida bir qator muhim bitimlar imzolandi.

Bundan tashqari, sog‘liqni saqlash sohasida ham yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. 2023-yil 6 — 30-noyabr kunlari mamlakatimizning barcha hududida tataristonlik mutaxassislar ishtirokida “O‘zbekiston — Tatariston salomatlik oyligi” o‘tkazilgani buning yaqqol tasdig‘idir.

Tadbir doirasida rossiyalik onkologiya, ginekologiya, bolalar xirurgiyasi, kattalar va bolalar neyroxirurgiyasi bo‘yicha mutaxassislar o‘zbekistonlik hamkasblariga respublika aholisini tekshirish va tashxislashda yordam berdi.

O‘zbekiston va Rossiya do‘stona munosabatlarini mustahkamlashda sport diplomatiyasi muhim ahamiyat kasb etyapti. Mamlakatlarimiz sportchilari o‘rtasida turnirlar va musobaqalar tashkil qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston delegatsiyasi 2024-yil 21-fevral — 3-mart kunlari Qozon shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi “Kelajak o‘yinlari” xalqaro musobaqasida munosib ishtirok etdi. Bundan tashqari, “Parij — 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlari yo‘llanmalarini qo‘lga kiritgan bokschilarimiz 14 — 18-may kunlari Xabarovsk shahrida o‘tgan Konstantin Korotkov xotira turnirida qatnashdi.

Bo‘lajak sport tadbirlari jadvali ham xilma-xil. Masalan, 2024-yilning 11-iyunidan 24-iyuniga qadar Qozon shahrida VI BRIKS xalqaro sport o‘yinlari bo‘lib o‘tadi. Ushbu musobaqada O‘zbekiston atletlari sportning 30 turi bo‘yicha ishtirok etadi.

Ikki xalqning tarixiy aloqalari va madaniy o‘zaro bog‘liqligi sayyohlik almashinuvining oshishida muhim ahamiyatga ega. Xususan, 2023-yilda O‘zbekistonga 750 mingdan ortiq rossiyalik sayyohlar tashrif buyurgan bo‘lsa, joriy yilning o‘tgan to‘rt oyida bu ko‘rsatkich 130 mingdan ko‘paydi.

Madaniyat va san’at namoyandalarining o‘zaro tashriflari ham faol qo‘llab-quvvatlanyapti. O‘zbekiston va Rossiya teatrlarining ijodiy safarlari, ikki mamlakatning “Madaniyat kunlari” birgalikda tashkil etilmoqda. Rossiya ijodiy jamoalari O‘zbekistonda an’anaviy tarzda o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, Toshkent xalqaro kinofestivali kabi yirik tadbirlarda faol qatnashayotgani quvonarlidir.

> Siyosiy muloqotlarning muntazam ahamiyat kasb etayotgani iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qilayotir. Bu, o‘z navbatida, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmining jadal o‘sishi, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish, yetakchi korxonalar, ishbilarmon doiralar va hududlar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini mustahkamlashda muhim omil bo‘lyapti.

Albatta, bir maqola doirasida O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida jadal rivojlanib borayotgan ko‘p qirrali hamkorlikning butun xilma-xil ko‘lamini qamrab olish qiyin. Biroq bir narsa aniq — tomonlar strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash tarafdori. Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning O‘zbekistonga bo‘lajak davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish va xalqlarimiz manfaati yo‘lida avval erishilgan kelishuvlarni jadallashtirishga kuchli sur’at bag‘ishlashi, shubhasiz.

**“Dunyo” AA.**

# O‘ZBEKISTONNING BOY MADANIY MEROSI VA SAN’ATI NAMOYISHI

*Pekin shahrida joylashgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (OIIB) bosh qarorgohida O‘zbekiston madaniyati va san’atiga bag‘ishlangan tadbir o‘tkazildi.*

*Unda OIIB rahbariyati va xodimlari, Xitoydagi diplomatik korpus, OAV vakillari va vatandoshlar ishtirok etdi.*

## Biz va jahon

“Dunyo” axborot agentligi xabar berishicha, OIIB prezidenti Szin Lisyun o‘z nutqida joriy yilning yanvar oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning bank bosh qarorgohiga tashrifi va uning doirasida bo‘lib o‘tgan uchrashuv O‘zbekiston hamda ushbu moliya muassasasi o‘rtasidagi hamkorlikda muhim tarixiy voqea bo‘lganini ta’kidladi. Shuningdek, O‘zbekiston OIIB hamkorlari orasida eng faol davlatlardan biri ekani va mamlakatimizda bank ko‘magida ko‘plab yangi loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgani bildirildi.

Ishtirokchilar yurtimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyati bilan tanishdilar.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasida hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar, sayyohlar uchun yaratilayotgan sharoitlar yuzasidan ma’lumot berildi hamda Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlarimizning turizm imkoniyatlariga bag‘ishlangan videoroliklar namoyish qilindi.

Tadbir davomida O‘zbekiston davlat filarmoniyasining Xorazm viloyati bo‘linmasi san’atkorlari tomonidan kuy-qo‘shiqlar, xususan, “Lazgi” raqsi ijro etildi. Milliy o‘zbek hunarmandlik mahsulotlari, O‘zbekiston madaniyati haqida hikoya qiluvchi badiiy asarlar ko‘rgazmasi va milliy taomlar festivali uyushtirildi.

Ma’lumot uchun aytish joiz, 2014-yil 24-oktabrda tashkil etilgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki xalqaro moliyaviy tashkilot hisoblanadi. Uning bosh qarorgohi Pekin shahrida joylashgan. 2016-yil 1-yanvardan buyon OIIB prezidenti lavozimida Szin Lisyun ishlab kelmoqda. Mazkur tashkilotga 105 mamlakat a’zo. Uning asosiy maqsadi Osiyo mintaqasida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

**Lyudger SHUKNEXT,**
**OIIB vitse-prezidenti:**

— Bugun OIIBda O‘zbekiston madaniy hayotiga bag‘ishlangan tadbirda qatnashganimdan juda mamnunman. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston OIIBning eng muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi va mamlakatda bank ishtirokida ko‘plab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Tadbir davomida O‘zbekiston madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ldik. Ishtirokchilar e’tiboriga o‘zbek kuy-qo‘shiqlari, mazali va betakror milliy taomlari, hunarmandchilik mahsulotlari va nafis ishlangan an’anaviy liboslari taqdim etildi.

YUNESKO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan “Lazgi” raqsi ijrosi yig‘ilganlarga ko‘tarinki ruh bag‘ishladi. Shuningdek, O‘zbekiston shaharlarining tarixiy obidalari va zamonaviy hayotini o‘zida aks ettiruvchi badiiy asarlar ko‘rgazmasi bizda katta taassurot qoldirdi.

**Igor POPKOV,**
**OIIB investitsiyalar bo‘yicha katta mutaxassisi:**

— Bugun O‘zbekistonning Xitoydagi elchixonasi tomonidan OIIB binosida mamlakatingiz madaniyatiga bag‘ishlab unutilmas tadbir o‘tkazildi.

Yig‘ilganlar e’tiboriga O‘zbekistonning qadimiy shaharlari va turizm salohiyatini namoyon qiluvchi badiiy asarlar, milliy kuy-qo‘shiq hamda raqslar, hunarmandchilik mahsulotlari va mazali taomlar taqdim etildi.

Bankda turli davlatlardan kelgan mutaxassislar ishlaydi. Bunday tadbirning o‘tkazilishi mamlakatingizning boy madaniy imkoniyatlarini yanada kengroq targ‘ib etish va yaqindan his qilish imkonini beradi.

Men Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O‘zbekiston bilan hamkorlik loyihalari yo‘nalishida ishlayman. Hozirgi kunda mamlakatingizda bir qancha muhim loyihalarni amalga oshiryapmiz.

**Turkiyaning Istanbul shahrida O‘zbekiston Sudyalar oliy kengashi taqdimoti o‘tkazildi.**

# TIBBIYOT RIVOJIGA QARATILGAN MUHIM TASHABBUSLAR

*Ma’lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida tibbiyot tizimini bugungi kun talablari asosida rivojlantirish va aholi uchun qulayliklar yaratish masalalariga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Yaqinda Prezident ishtirokida bo‘lib o‘tgan Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, yangi takliflar taqdimoti misolida ham buni ko‘rish mumkin. Zero, unda davlatimiz rahbari tomonidan soha rivojiga xizmat qiladigan qator g‘oya hamda tashabbuslar ilgari surildi va dolzarb vazifalar belgilab berildi.*

## Aks sado

Xalqimiz bejiz “Salomatlik — tuman boylik” demagan. Hatto har bir inson hayotida salomatlik qanchalik ahamiyatli ekanligini ta’kidlashga hojat yo‘q. Qolaversa, inson salomatligi nafaqat uning o‘zi uchun, ayni chog‘da butun jamiyat uchun manfaatlidir. Shundan kelib chiqib oxirgi bir necha yilda yurtimizda tibbiyot sohasini keng isloh qilishga yo‘naltirilgan dasturlar va tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, keyingi yetti yilda sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi 5,9 trillion so‘mdan 33,5 trillion so‘mga, ya’ni 6 barobar oshganligi buning yorqin dalilidir.

Taqdimotda sog‘liqni saqlash sohasiga doir tub islohotlar, ayniqsa, aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini isloh qilish hamda birlamchi bo‘g‘inlarning faoliyatini yanada jadallashtirishga alohida urg‘u berildi. Bu bejiz emas. Tahlillarga ko‘ra sohada aholi murojaatlarining 30 foizigina birlamchi bo‘g‘inda hal bo‘lmoqda, ayrim kasalliklar bo‘yicha davolash uslubi zamon talablariga javob bermaydi, hali-hamon eski usullardan foydalanib kelinmoqda.

Endilikda aholi o‘rtasida ko‘p uchraydigan gipertoniya, yurak-ishemik va surunkali o‘pka xastaliklari, bronxial astma, qandli diabet, gepatit kabi 7 ta kasallik guruhi bo‘yicha davolash standartlari xalqaro talablar asosida yangilanadi.

Yana bir yangilik sifatida bemorlarga odatiy tekshiruvlarni belgilash, dorisiz davolash yumushlari shifokorlardan hamshiralarga o‘tkazilishini keltirish mumkin. Bu, o‘z navbatida, poliklinikalarda bemorlar harakati tartibga solinishi va shifokorlarni kutish vaqtining kamayishiga olib keladi.

Taqdimot chog‘ida tez tibbiy yordam tizimi tahlil qilinar ekan, asosiy muammo murojaatlarni kasallikning og‘irligiga qarab saralamaslik bilan bog‘liq ekani qayd etildi. Shu bois tez yordam “Coll-markaz”larida shifokor maslahati ham yo‘lga qo‘yiladigan bo‘ldi. Bu yil Toshkent shahrida, kelasi yildan esa boshqa hududlarda paramedik va pediatrik brigadalar tashkil qilinadi, bunda tizim xodimlari qayta tayyorlovdan o‘tkaziladi.

Joriy yildan boshlab poytaxtimizda davlat tibbiy sug‘urta mexanizmi yo‘lga qo‘yilishi ham tahsinga loyiq. E’tiborlisi, bu aholi tomonidan to‘lanayotgan umumiy soliqlar hisobidan bo‘ladi va odamlardan qo‘shimcha badallar undirilmaydi.

**Tibbiy sug‘urta doirasida:**

- davlat tomonidan aholiga bepul ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalarining kafolatlangan paketi joriy etiladi;
- bemorlarni o‘zlari biriktirilgan oilaviy shifokorlar orqali tor soha mutaxassislari yoki shifoxonalarga yo‘llash tizimi tashkil qilinadi. Bunda ushbu tartibga rioya etilgan holdagina bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatiladi;
- aholiga kafolatlangan paket doirasida eng ko‘p uchraydigan kasalliklar bo‘yicha dori vositalari elektron retsept asosida dorixonalar orqali bepul beriladi.

Hozirdan aytish mumkinki, tibbiy sug‘urta tizimi butun mamlakatimiz bo‘ylab joriy etilgach ko‘plab masalalar o‘zining ijobiy yechimini topadi.

Taqdimot davomida dorilarga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojni shakllantirish, ularni xarid qilish hamda joylarga o‘z vaqtida yetkazib berish masalalari chuqur tahlildan o‘tkazildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida sotib olinadigan dori vositalari va tibbiy buyumlar ro‘yxatini hamda xarid jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha tegishli topshiriq va ko‘rsatmalar berilgani ham ayni muddao bo‘ldi. Negaki, bu dori vositalarini qaysidir ma’noda nazorat qilish imkonini beradi va pirovardida iste’molchilarga sifatli mahsulot yetib borishiga zamin yaratadi.

O‘zaro muloqot asnosida davlatimiz rahbari tomonidan yana bir dolzarb masalaga e’tibor qaratildiki, bu barcha yurtdoshimiz uchun birdek tegishli. Ya’ni jamiyatda sog‘lom turmush tarzini keng yoyish orqali kasalliklarning oldini olish hamda odamlarda o‘z salomatligiga mas’uliyat hissini oshirish bugun har qachongidan ham muhim. Zero, har kim sog‘lig‘i haqida o‘zi qayg‘urmas ekan, kutilgan natijalarga erishib bo‘lmaydi.

Umuman, taqdimotda yana ko‘plab tashabbus va fikrlar ilgari surildiki, bularning barchasi pirovardida tibbiyot sohasini zamon talabi darajasida rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tabiiyki, mazkur g‘oyalarni hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etish mutasaddilar qatorida biz, xalq vakillaridan ham katta kuch va mas’uliyat talab qiladi.

**Anvar TO‘YCHIYEV,**
**Oliy Majlis Senati a’zosi.**

# SHAHARSOZLIKNING SHAFFOF TIZIMINI YARATISH IMKONIYATI

*Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi yig‘ilishida bir qator qonunlar muhokamasi bo‘lib o‘tdi.*

## Senat qo‘mitasida

Unda senatorlar, mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari raislari, Yoshlar parlamenti hamda qo‘mita huzuridagi ekspertlar guruhi a’zolari, qonun tashabbuskorlari, mutasaddi vazirlik va idoralar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Qo‘mita majlisida dastlab “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun muhokama qilindi.

Mazkur qonun bilan Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining vakolatlariga aniqlik kiritish nazarda tutilmoqda. Bu esa uning shaharsozlik siyosatini muvofiqlashtirishdagi rolini kuchaytiradi, shaharlar va aholi punktlarini rivojlantirishni samarali boshqarishni ta’minlaydi.

Shuningdek, majlisda “Huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun ham ko‘rib chiqildi.

Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish bilan bog‘liq jinoiy qilmishni jinoiy jazo tarkibidan chiqarib, uni ma’muriy huquqbuzarlik toifasiga o‘tkazish, yarashuv institutiga kiruvchi ma’muriy huquqbuzarliklar doirasini kengaytirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Mazkur qonun ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha yarashuv instituti doirasining kengaytirilishiga, inson huquqlarining yanada ishonchli himoyasiga, yurtimizda huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligi oshishiga hamda jinoiy jazolarning ayrim turlarini yanada liberallashtirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Majlisda ko‘rilgan masalalar yuzasidan Senat qo‘mitasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

## Qonunchilik palatasida

# MUHOKAMADA — AHOLI SALOMATLIGI MUHOFAZASI

*Yaqinda Prezidentimiz Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishish jarayonida birlamchi bo‘g‘in va tez tibbiy yordam tizimini takomillashtirish, davlat tibbiy sug‘urtasini joriy etish, dori-darmonlar xaridini tartibga solish borasida ishlab chiqilgan takliflar atroflicha tahlil qilinib, ushbu yo‘nalishda muhim vazifalar belgilab berilgan edi.*



Shundan kelib chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, xususan, Aholi salomatligini mustahkamlash borasidagi islohotlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha parlament komissiyasi tomonidan asosiy vazifalar, jumladan, sohada olib borilayotgan ishlarning huquqiy asosini mustahkamlash, joylarda parlament nazoratini ro‘yobga chiqarishga oid ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi.

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash masalalari qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishda bu haqda batafsil so‘z yuritildi. Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani ta’kidlandi.

Yig‘ilishda, shuningdek, “BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish (3.1, 3.2 va 3.7-vazifalar ijrosi), xususan, onalik va bolalikni muhofaza qilish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash borasida sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan ishlar holati” Samarqand va Farg‘ona viloyatlari misolida nazorat-tahlil tartibida o‘rganish yakunlari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, BRMning 3-maqsadi (3.1, 3.2 va 3.7-vazifalari) onalik va bolalikni muhofaza qilish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan. Xususan, 2030-yilga borib onalar o‘limi ko‘rsatkichini uchdan birga kamaytirish, chaqaloqlar va 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi ko‘rsatkichini 2 barobar qisqartirish, jinsiy va reproduktiv salomatlikni saqlash bo‘yicha to‘liq qamrovni ta’minlash, oilani rejalashtirish, qizlarning nikoh yoshini 18 gacha ko‘tarish, milliy strategiya va dasturlarda reproduktiv salomatlik masalalarini inobatga olish belgilab qo‘yilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha zarur huquqiy asos yaratilib, mavjud qonunlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Misol uchun, Oila kodeksiga kiritilgan tegishli o‘zgartirishga ko‘ra qizlar uchun nikoh yoshi o‘n sakkiz yosh etib belgilandi.

Yig‘ilishda o‘tgan davrda mamlakatimizda onalar va bolalar salomatligi muhofazasiga oid salmoqli ishlar bajarilganiga urg‘u berildi. Masalan, bugungi kunda 18 milliondan ortiq ayollarga 22,3 ming o‘ringa ega 229 ta tug‘uruqxona, 18 yoshgacha bo‘lgan 11 milliondan ziyod bolalarga esa 13,3 ming o‘ringa ega 245 ta pediatriya muassasasi xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

Shu bilan birga, tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarda Ayollar maslahatxonalari, Bolalar bo‘limlari, Prenatal skrining xonalari, Onkonazorat xonalari faoliyat yurityapti. Bundan tashqari, 46 ta tumanlararo perinatal markazi 8 turdagi tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

Respublika bo‘yicha hisobga olingan homiladorlarda o‘tkazilgan prenatal skrining tekshiruvi natijalaridan kelib chiqib esa, 2021 — 2023-yillarda 70 mingdan ziyod holatlarda homilasida turli nuqsonlar aniqlangan ayollarning aksariyatida homiladorlik to‘xtatilib, tug‘ma nogironligi bor bolalar tug‘ilishining oldi olindi.

Munozaralar davomida sohani raqamlashtirish, xususan, “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona” tizimlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash, davlat tibbiy sug‘urta mexanizmlarining to‘liq yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash, onalar va go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichini sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan choralarni kuchaytirish, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh holatlarini bartaraf qilish lozimligi qayd etildi.

Muhokama jarayonida tibbiy xizmatlar sifatini yanada oshirish, qonunlarga sohani raqamlashtirish, davlat tibbiy sug‘urta mexanizmlarini keng joriy qilish, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohni taqiqlovchi normalar kiritish, irsiy yoki tug‘ma nuqsonlar aniqlangan holatda nogironligi bor bola tug‘ilishining oldini olishga qaratilgan qator taklif va tavsiyalar berildi.

Yig‘ilish yakunida kun tartibidagi masala yuzasidan qo‘mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# FRAKSIYALAR HAYOTI

## O‘zLiDeP

Shu kunlarda umumta’lim maktablarida navbatdagi o‘quv yili yakuniga yetmoqda. Bu esa o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish masalasiga yanada jiddiy e’tibor qaratish zarurligini anglatadi.

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Shahnoza Xolmahamatova** bu bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarini bayon qilar ekan, bolani nazoratsiz qoldirgan ota-onalarning mas’uliyatini kuchaytirishga qaratilgan qonunchilikni samarali joriy etish vaqti kelganini aytdi.

*“Yo‘qsa, yana doimgidek hammasiga maktab yoki mahalla javobgar bo‘laveradi”,* deydi deputat.

Shu bilan birga, xalq vakili maktablarda ota-onalar, o‘quvchilar bilan bevosita ishlaydigan psixolog shtati mavjud bo‘lsa-da, ularning salohiyati yoki bilimi minglab o‘quvchilar bilan ishlay olish darajasida emasligini va bu borada ham tegishli choralar ko‘rilishi lozimligini ta’kidlaydi.

## “Milliy tiklanish” DP

Keyingi vaqtlarda maktablardagi bo‘sh yer maydonlari tadbirkorlarga vaqtincha foydalanishga berilayotgani ijtimoiy tarmoqlarda “Maktab yerlari yeng ostida sotilmoqda” qabilidagi xabarlar tarqalishiga sabab bo‘layotir.

Mazkur masala yuzasidan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Farhod Zayniyev** o‘z mulohazalarini bildirib, jamoatchilik e’tirozi va xavotiri o‘rinli ekanligini, sababi hukumatning tegishli qarorida ijtimoiy obyektlarni ijaraga berishdan oldin hudud aholisining roziligini olish, hech bo‘lmaganda, xabardorligini oshirish majburiyati yuklatilmaganini tanqid ostiga oldi.

*“Mahalla aholisi o‘z hududidagi ta’lim muassasasidagi bo‘sh yer maydoni qanday asoslar va shartlarda ijaraga berilayotganidan xabardor qilinmaganidan keyin, noxolis va haqiqatga zid xabarlar, xavotirlar ko‘payishi tabiiy hol. Shuning uchun ijtimoiy obyektlarni ijaraga berish tartib-taomillarini qonun darajasida belgilash, qolaversa, bu jarayonda jamoatchilik ishtirokini ta’minlashga erishishimiz kerak. Umid qilamizki, tez orada “Davlat mulkini ijaraga berish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi parlamentga taqdim etiladi va ushbu hujjat bilan ko‘plab tushunmovchiliklarning oldi olinadi”,* deydi deputat o‘z munosabatida.

## “Adolat” SDP

Qonunchilik palatasining yaqinda bo‘lib o‘tgan yalpi majlisida “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqilgan edi.

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Oltinoy Mamirova** qonun loyihasi yuzasidan o‘z fikrlarini bildirib, maishiy zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning huquq va manfaatlari himoyasi kuchaytirilayotgani partiya dasturiy maqsadlariga to‘la mos ekanini qayd etdi.

*“Ba’zan guvohi bo‘lamiz: oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, ayniqsa, xotin-qizlar tushkunlikka tushib qolishadi. Oqibatda ular ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo‘lib, mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmay qolishadi. Shu bois oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarning bandligini ta’minlashda alohida imtiyoz qo‘llanilishini fraksiyamiz a’zolari bir ovozdan qo‘llab-quvvatlaydi”,* dedi deputat.

## O‘zXDP

Shu haftada Prezident Shavkat Mirziyoyev Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Qizilgul Qosimova** taqdim etilgan loyihalar partiya elektorati vakillari manfaatiga mosligini e’tirof qildi. Xususan, 2024-yilda poytaxtimizda davlat tibbiy sug‘urta mexanizmlari aholi tomonidan to‘lanayotgan umumiy soliqlar hisobidan joriy etilishi va odamlardan qo‘shimcha badallar undirilmasligi partiya a’zolari va xayrixohlarini quvontirishi ta’kidlandi.

*“Ayniqsa, davlat tomonidan aholiga bepul ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalarining kafolatlangan paketi joriy etilishi xalqimizning ehtiyojmand qatlami og‘irini yengil qiladi, deb o‘ylayman. Biz, deputatlar joylarda bu boradagi islohotlarni xalqimizga yetkazishda hamda nazoratini yuritishda faol ishtirokchiga aylanmog‘imiz lozim”,* dedi deputat.

## O‘zbekiston Ekologik partiyasi

Ba’zan ijtimoiy tarmoqlarda qarovsiz qolgan hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabat aks ettirilgan xabar va lavhalar ko‘zga tashlanib turadi. Bunday holatlarning tez-tez uchrashi hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lganlik uchun belgilangan jazo choralarini kuchaytirishni, bu boradagi qonunchilikni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etayotir.

Ushbu og‘riqli mavzu bo‘yicha O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Islom Xushvaqtov** partiya pozitsiyasini bildirar ekan, bu kabi holatlarga duch kelinganida uning sabablarini aniqlash va bartaraf qilishga yetarlicha e’tibor qaratilmayotganini ta’kidladi.

*“Shu bois biz, deputatlar hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilishga qaratilgan butunlay yangi qonun loyihasini ishlab chiqdik va hozirda loyiha jamoatchilik vakillari, mas’ullarning taklif-tavsiyalari asosida maromiga yetkazilmoqda”,* dedi deputat.

**“Xalq so‘zi”.**

# BEMORLARGA “ELEKTRON POLIKLINIKA”LAR XIZMAT KO‘RSATADI

*So‘nggi yillarda xalqimiz salomatligini asrash va umr ko‘rish darajasini uzaytirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Xususan, yurtimizda aholi sog‘lig‘ini muhofazalash, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab berildi. Davlatimiz rahbarining sohaga oid qator Farmon va qarorlari qabul qilinib, O‘zbekistonda tibbiyoti rivojlangan mamlakatlardagi kabi eng ilg‘or innovatsion taraqqiyotga erishish borasida muhim qadamlar tashlandi.*

## Fikr

Ishlar eng quyidan — aholi salomatligini saqlash hamda tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan boshlandi. Dastlabki qadamlar katta maqsadlarga ulandi. Ular tibbiyotning barcha yo‘nalishida sifatli va zamonaviy xizmat ko‘rsatishni ta’minlash bilan uyg‘unlashdi.

Darhaqiqat, keyingi yetti yilda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofazalash, sog‘lom avlod tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan katta ishlar qilindi. Shu davrda sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi 6 barobar oshirildi. Bir paytlar aholining sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi uchun zarur sharoitlari bo‘lmagan shifoxonalar bugun butunlay yangidan ta’mirlanib, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

Ana shunday sa’y-harakatlar tufayli birlamchi va malakali tibbiy xizmatlar aholining keng qatlamlariga kirib bormoqda. Buning tasdig‘ini birgina 2023-yilda joylarda 22 ta oilaviy poliklinika, 93 ta oilaviy shifokor punkti va 394 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etilib, birlamchi tibbiy xizmatlar 2 million 100 ming nafardan ziyod aholiga yaqinlashtirilgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Ayni chog‘da sohaga davlat tibbiy sug‘urtasi va raqamlashtirish mexanizmlari bilan birga xususiy tibbiyot muassasalari faoliyati ham keng joriy etilmoqda. Shifoxonalarni zamonaviy transport va tibbiy jihozlar bilan ta’minlash darajasi keskin yaxshilandi.

Tibbiyot tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlar hamda yuqori malakali tibbiyot mutaxassislari, hamshiralarning mashaqqatli mehnati tufayli yuqori texnologik jarrohlik operatsiyalari nafaqat poytaxtimiz va viloyatlar markazlarida, balki tumanlarda ham muvaffaqiyatli o‘tkazilyapti.

Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash, tibbiyot muassasalari faoliyatini ilg‘or xorijiy tajriba asosida tashkil etish, islohotlarni jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida bu sohada Loyiha ofislari tashkil etilgani ham allaqachon samara bera boshladi. Bu, o‘z navbatida, fuqarolar salomatligini asrash, malakali tibbiy kadrlar salohiyatini oshirish, sohaga yangi boshqaruv usullarini joriy etishda ham ijobiy natijasini ko‘rsatyapti.

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu yil 21-may kuni Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishish chog‘ida birlamchi bo‘g‘in va tez tibbiy yordam tizimini takomillashtirish, davlat tibbiy sug‘urtasini joriy etish, dori-darmonlar xaridini tartibga solish bo‘yicha qator takliflar ishlab chiqilgani aytib o‘tildi.

Bilamizki, tibbiyot muassasalari yetarlicha raqamlashtirilmagani sababli sug‘urta tizimi to‘liq ishlamayapti. Shifokorlarning ko‘p vaqti hisobot to‘ldirishga ketmoqda. Shifokor qabuliga yozilish uchun vaqt ajratish, o‘qish yoki ishdan qolib klinikaga borish, mutaxassisni tanlash va shifokor qabuliga kirish uchun navbatga kupon olish talab etiladi.

Davlatimiz rahbari ushbu muammolarning aniq yechimlarini belgilab berdi. Ya’ni Toshkent shahrida sohani raqamlashtirish bo‘yicha namunaviy tizim yaratish vazifasi qo‘yilib, buning uchun barcha muassasalar yangi kompyuter va texnika vositalari bilan jihozlanadigan bo‘ldi. Eng muhimi, yil yakuniga qadar “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” tizimlari ishga tushiriladi. Natijada shifokor qabuliga kirish uchun uzoq vaqt navbat kutib turishga hojat qolmaydi.

Bugun vaqt insoniyat uchun eng qimmatli resursga aylandi. Odamlar har bir ishi tez va oson bitishini istaydi. Ayniqsa, shifo muassasalarida. Mazkur dastur, shubhasiz, ortiqcha ovoragarchilik va qog‘ozbozliklarga chek qo‘yib, ishlarni tizimli ravishda olib borishga, shifokorlarning bemorlar uchun ko‘proq vaqt ajratishiga imkon beradi.

Aholi salomatligini saqlashga qaratilgan bunday vazifalarning mohiyatiga e’tibor qaratsak, ularning har birida aholi salomatligini saqlashda tibbiy xizmat sifatiga, tibbiyot muassasalari faoliyati samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan muammolarning yechimiga qaratilganini anglab olamiz.

Yig‘ilishda belgilab berilgan vazifalarning bajarilishi esa sog‘liqni saqlash sohasini yangi bosqichga olib chiqishga, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati yanada yaxshilanishiga va fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish qulayliklarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**Anvarxon TEMIROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

**Namanganda “Akademik va yoshlar: ilm-fan taraqqiyotini yoshlar yaratadi” mavzuida akademiklar va yoshlar kongressi bo‘lib o‘tdi.**

# BIZ BIR BO‘LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

*Yaqinda BMT tomonidan “25-may — Butunjahon futbol kuni”, deb e’lon qilindi. Sananing bunday nomlangani 1924-yil 25-maydagi Parij yozgi Olimpiadasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu yil tarixdagi mazkur birinchi xalqaro futbol turnirining 100-yilligi keng nishonlanadi.*

*Qayd etish joizki, yurtimizda ham ushbu sport turiga e’tibor kuchaymoqda. Yashil maydonlarda to‘p surayotgan futbolchilarga yaratilayotgan sharoitlar kundan-kunga yaxshilanib bormoqda.*

*Quvonarlisi, olib borilayotgan ishlar allaqachon o‘z samarasini bera boshladi. Jumladan, O‘zbekiston yoshlar terma jamoasi yaqinda Qatar davlatida futbol bo‘yicha yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Osiyo kubogi musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnashib, shu yil yozda Parijda o‘tkaziladigan Olimpiya o‘yinlari yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi.*

## Bugun — Butunjahon futbol kuni

**Temur KAPADZE,**
**O‘zbekiston olimpiya terma jamoasi va “Olimpik” futbol klubi bosh murabbiyi:**



— Yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Osiyo kubogi musobaqalarida tarixiy natijaga erishishimizda xalqimiz duosi va qo‘llab-quvvatlashi bizga katta dalda bo‘ldi. Bunda barchaning hissasi bor, albatta.

To‘rt yil davomida musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko‘rdik. “Olimpik” futbol klubining tashkil etilgani ham bizga bu borada ko‘plab imkoniyatlarni taqdim qildi. Natijada futbolchilarimiz har tomonlama kuchaydi, mahorati oshdi. Klub mana, uch yildirki, superligada o‘ynayapti. Terma jamoamiz Osiyo chempionatida nisbatan yosh tarkib bilan vitse-chempionlikni ham qo‘lga kiritdi. 1994-yilgi chempionlikdan beri medal olinmay kelinayotgan Osiyo o‘yinlarida ham 3-o‘ringa sazovor bo‘ldik. Umuman, jamoaviy o‘yinlarda sovrindor bo‘lishning o‘zi g‘alabaga teng.

Yaqinda esa oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizdan yana biri amalga oshdi. Ya’ni terma jamoamiz “Parij — 2024” Olimpiada yo‘llanmasiga ega bo‘ldi. Ushbu musobaqaga tayyorgarlik jarayonlari Osiyo chempionati tugamasdanoq, ya’ni yo‘llanmani qo‘lga kiritishimiz bilan boshlangandi. Yaqin kunlarda Mali yoshlar terma jamoasi bilan ikkita o‘rtoqlik uchrashuvimiz bor. Olimpiada bahslari oldidan Fransiyada Yangi Zelandiya yoshlar terma jamoasi bilan kuch sinashish rejalashtirilgan. Ushbu bellashuvlar muhim o‘yinlar oldidan futbolchilarning jismoniy imkoniyatlarini yana bir bor ko‘rikdan o‘tkazishimizda, yoshlarimizning esa Yevropa yashil maydonlariga ko‘nikishida muhim ahamiyatga ega.

Ishonamizki, bizni yangi marralar, ulkan zafarlar kutib turibdi. Boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas. Futbolchilarimizni ham jismonan, ham ruhan yuksak maqsadlar uchun tayyorlayapmiz. Jamoamiz uchun shior bitta: qaysi musobaqa bo‘lmasin, O‘zbekiston libosida to‘p suryapmizmi, bor kuchimiz va shijoatimiz bilan harakat qilishimiz shart. Xudo xohlasa, Olimpiadada ham chempion bo‘lamiz!

**Jasur JALOLIDDINOV,**
**O‘zbekiston olimpiya terma jamoasi sardori:**



— Terma jamoamiz tarixda ilk bor Olimpiada yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. Bu natija bilan, albatta, faxrlanamiz, ammo final bahsida mag‘lubiyatga uchraganimiz mahorat va tajribamizni oshirish uchun hali ko‘p mehnat qilishimiz kerakligini anglatadi.

Prezidentimizning yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda keng aks sado bergan “11 metrni urmagandan keyin uch kun uxlolmadim”, degan fikrini eshitib, to‘g‘risi, yana bir bor tuyg‘ularim jumbushga keldi. Xalqimiz bizning g‘alabamizni naqadar intizor kutganini yana bir bor qalbimdan o‘tkazib, zarur xulosalar qildim.

Shu paytgacha ham O‘zbekiston yoshlar terma jamoalarida yuqori saviyali futbolchilar doim bo‘lgan. Ammo hozirgi olimpiya terma jamoasidagi yorqin nomlar nafaqat yurtimizda, balki jahon miqyosida ham e’tirof etilmoqda. Ba’zi safdoshlarimiz dunyoning kuchli futbol klublarida to‘p tepayotgani ham bejiz emas. Bu ularni har tomonlama toblamoqda.

Yaqin kunlarda yozgi Olimpiada yo‘lida tayyorgarlik yig‘inlarini boshlaymiz. Bu musobaqada kuchsiz jamoaning o‘zi bo‘lmaydi. Nafaqat jismoniy, balki ruhiy tayyorgarligimizni ham kuchaytirish — asosiy maqsadimiz. Fransiya yashil maydonlarida nimalarga qodir ekanimizni ko‘rsatishimiz shart. Bu musobaqada futbolchilarni butun dunyo jamoatchiligi, ayni paytda yosh iqtidorlar seleksiyasi bilan shug‘ullanuvchi agentlar ham kuzatadi. O‘z o‘yinimizni ko‘rsata olsak, o‘zbek futbolchilari uchun Olimpiada o‘yinlari jahonning kuchli chempionatlariga o‘tishiga tramplin bo‘lishi aniq.

**Alisher ABDURAHMONOV,**
**O‘zbekiston olimpiya terma jamoasi shifokori:**



— 2023-yil Xitoy davlatida bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarining nimchorak final o‘yini oldidan 16 nafar futbolchimiz koronavirusning yangi turi bilan og‘rib qolgandi. Barchasida isitma oshishi, oshqozon-ichak yo‘llari og‘rig‘i kuzatildi. Sport shifokorligidagi 30 yillik tajribam bois futbolchilarimizni tezlikda davolab, Indoneziya terma jamoasiga qarshi o‘yinga tayyorlashga erishdik. O‘shanda murabbiylarimiz “Kimni maydonga tushiramiz, tarkibda o‘yinga tayyor 11 nafar futbolchi chiqmaydi”, deb xavotir olishgandi. O‘sha bellashuvning qo‘shimcha vaqtlarida 2 ta gol urib, g‘alaba qozondik.

O‘zbekiston yoshlar terma jamoasi a’zolarining salomatligi qat’iy nazoratga olingan. Futbolchilarimizning tibbiy nuqtayi nazardan antropometrik o‘zgarishlarini kuzatib boryapmiz. O‘FA rahbariyati futbolchilarning jismoniy holatini yaxshilash maqsadida London shahridagi dunyoga mashhur “SIS” sport ozuqalari kompaniyasidan vitamin va sport ozuqalarini olib berdi.

Yaqinda Dohada bo‘lib o‘tgan yoshlar o‘rtasidagi Osiyo kubogida futbolchilarimizda, asosan, kichik jarohatlar kuzatildi. O‘FA rahbariyati bizni hozirgi kunda zamonaviy futbolda ishlatiladigan davolovchi fizioterapiya tibbiy apparatlari, farmakologik dori-darmon va vitaminlar bilan ta’minlagan. Bunday e’tibor o‘z natijasini bermasdan qolmaydi, deb ishonamiz. Nasib qilsa, Parijdagi nufuzli musobaqada jamoamiz g‘olib bo‘ladi.

Eng muhimi, jamoada muhit sog‘lom. Hamma o‘z vazifasini sidqidildan bajarishga intilmoqda. Bizni yagona maqsad birlashtirib turibdi. Zotan, muvaffaqiyatlar zamini ana shu yakdillikda, hamjihatlikda, bir musht bo‘lib oldinga intilishda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, biz bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!

**Elyor HAYDAROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

Tanlov

# IQTIDORLI YOSHLAR MUNOSIB TAQDIRLANDI

*Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohada o‘z iqtidori, salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.*

Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash Mirzo Ulug‘bek jamg‘armasi tomonidan o‘tkazib kelinayotgan “Mirzo Ulug‘bek vorislari” respublika tanlovi ham joylarda, avvalambor, chekka hududlarda istiqomat qilayotgan yoshlarning iqtidorini ro‘yobga chiqarishda yaqindan ko‘mak bermoqda, desak, adashmaymiz.

Mazkur tanlov 2022-yildan buyon an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinmoqda. O‘sha yili tanlovda ishtirok etish uchun 20 mingdan ortiq talabgorlar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, joriy yilga kelib ariza topshirgan talabgor yoshlar soni 47 mingdan oshib ketdi. Bu, albatta, yigit-qizlarning tanlovga qiziqishi va iste’dodini ko‘rsatishga ishtiyoqi balandligidan dalolat.

Bu yilgi tanlov ham nihoyatda qizg‘in kechdi. 2024-yilning mart-aprel oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tanlovning hududiy bosqichlari o‘tkazildi.

Birinchi bosqich yurtimizdagi 206 ta tuman (shahar) kesimida tashkil qilinib, unda jami 9 ming 796 nafar iqtidorli yosh o‘z loyihalarini komissiya a’zolariga taqdim qildi. Har bir tuman va shahardan 5 nafardan eng iqtidorli yigit-qiz g‘olib deb topildi va sertifikat, tanlovning 2-bosqichiga yo‘llanma hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Ikkinchi bosqich 14 ta hududda tashkil qilinib, unda jami 1 ming 30 nafar iqtidorli yosh o‘z loyihalari bilan qatnashdi. Har bir hududdan 20 nafardan, jami 280 nafar ishtirokchi g‘olib deb topildi va sertifikat, tanlovning yakuniy bosqichiga yo‘llanma hamda pul bilan mukofotlandi.

Kuni kecha poytaxtimizda tanlovning respublika bosqichi muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Ishtirokchilarning ilmiy ishlanmalarini baholash uchun oliy ta’lim muassasalarining yetakchi olimlari va yuqori malakali mutaxassislardan iborat komissiya tuzildi. Ular yoshlarning ilmiy loyihalari va g‘oyalari taqdimotlarini ko‘rib chiqib, 100 nafar eng yaxshi loyiha va g‘oyalar muallifini saraladi. Shuningdek, turli nominatsiyalar g‘oliblari — “Kelajak innovatori”, “Eng yaxshi prototip muallifi”, “Eng kreativ ishtirokchi”, “Ijtimoiy tarmoqlarda eng faol ishtirokchi”, “Eng qiziqarli loyiha taqdimoti”, “Eng dolzarb muammoga yechim”, “Eng faol ishtirokchi”, “Eng faol o‘quvchi”, “Eng faol talaba” aniqlandi.

Tanlovning taqdirlash marosimi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tdi. Unda jamg‘arma raisi, akademik Oqil Salimov, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov ishtirok etib, tanlov g‘oliblarini tabrikladi.

Tanlov yakunida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan 110 nafar yosh sertifikat, esdalik sovg‘a hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi.

**“Xalq so‘zi”.**

Tadbir

# BO‘LAJAK KIMYOGARLAR BILAN UCHRASHUV

*Yurtimizda har yili may oyining oxirgi yakshanbasida nishonlanadigan Kimyogarlar kuni — kimyo sanoati va fan xodimlarining kasb bayrami hisoblanadi. Mazkur sana oldidan Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi tomonidan Toshkent kimyo-texnologiya institutida talaba-yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi.*

Unda Toshkent kimyo-texnologiya institutining Yoshlar masalalari, ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha prorektori B. Boborajabov, institut kasaba uyushma qo‘mitasi raisi A. Abdurahmonov, Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha bosh mutaxassisi N. Muzapparova, oliygoh professor-o‘qituvchilari va talabalar qatnashdi.

Ta’kidlanganidek, mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Ayni chog‘da yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo‘ladi.

Uchrashuvda yoshlarga tarmoq kasaba uyushmasi tomonidan tizimdagi korxona, tashkilot va muassasalarda mehnat qilayotgan xodimlar, jumladan, yosh mutaxassislar, talaba yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hamda mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash, salomatligini mustahkamlash va sog‘lomlashtirish, ma’naviyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida batafsil ma’lumot berildi.

Tadbir doirasida O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yoshlarning faolligini oshirish, tarmoq kasaba uyushmasi Respublika kengashining 2024-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi hamda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturi ijrosini ta’minlash, tarmoq tizimidagi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning ilmiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash hamda kasaba uyushmalari kadrlar zaxirasini shakllantirib borish maqsadida o‘tkazilgan “Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi stipendiyasi uchun” ko‘rik-tanlovi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Unda g‘oliblar — Toshkent kimyo-texnologiya institutining kimyoviy moddalar texnologiyasi fakulteti talabasi Mohina Muhammadjonova hamda menejment va professional ta’lim fakulteti talabasi Davronbek Nasriddinov Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi sertifikati va stipendiyasi hamda esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

**Muhabbat O‘RMONBEKOVA,**
**O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari.**

# YANGI O‘ZBEKISTONNING UMIDI VA TAYANCHI

1

— Yoshlari bilimli, odobli, shijoatli va serg‘ayrat mamlakat yuksaklik pillapoyalaridan ko‘tarilishda qiyinchilik ko‘rmaydi, — deydi O‘zbekiston Qahramoni, Qarshi shahridagi 5-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi Muhabbat Sharopova. — Jamiyatning ertangi kuni qanchalik nurafshon, baxtli, to‘kin-sochin bo‘lishi ham aynan ilmsevar avlod vakillari bilan bog‘liq. Shukrki, mamlakatimizda bugun ta’lim va tarbiya birday olib borilmoqda. O‘qituvchi maqomi esa har doimgidan ko‘ra oshganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Bir paytlar maktablarni qishda isitish uchun ko‘miru o‘tin yoqar, qora tutunga to‘lgan xonada ko‘zimiz achishib, dilimiz og‘rib bolalarga saboq berardik. Bugun esa darsxonalar shinam, hamma qulayliklarga ega, biz ham o‘zgacha ishtiyoq va mehr bilan ishimizni davom ettiryapmiz.

Prezidentimiz tomonidan mutasaddilar oldiga ta’lim sifatini oshirish hamda zamon talablariga moslash asosiy vazifalardan biri sifatida qo‘yilgan. Shu asosda 500 ta maktabda Prezident maktablarining baholash tizimi, 135 ta maktabda esa tanlov fanlari joriy etilgani sohaga yangicha nafas kiritdi, desak, adashmaymiz.

Davlatimiz rahbarining maktab ta’limini rivojlantirishga, o‘quvchilarga ayricha mehr-e’tiborini an’anaviy tarzda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining bitiruvchi yoshlariga tabrik yo‘llab kelayotganida ham yaqqol ko‘rinadi. Xususan, o‘tgan yilgi tabrikda *“Sizlarning doimo marrani baland olib, yagona kuch bo‘lib harakat qilishingizga ishonaman. Sizlar bunga albatta qodirsiz”,* deya ta’kidlagani navqiron avlod vakillarini yanada ruhlantirgan, yangi marralar sari undagandi.

Bu so‘zlardan o‘ziga kuch, ilhom olgan yoshlar ona yurtimiz hamda xalqimiz oldidagi ishonch va mas’uliyatni yanada teran his qilib, joriy o‘quv yilida ham ajoyib natijalarni qayd etdi. Ilmga chanqoq va o‘ziga talabchan ana shunday o‘quvchilar 5 ta eng nufuzli xalqaro fan olimpiadasida 13 ta, boshqa xalqaro olimpiadalarda 52 ta medalni qo‘lga kiritgani so‘zimizning tasdig‘idir.

O‘zbekiston 2026-yilda eng nufuzli Xalqaro kimyo va Xalqaro informatika olimpiadalarida mezbonlik qilish huquqiga ega bo‘lgani mamlakatimizda sohada erishilayotgan yutuqlar hamda yoshlarimizning dunyo miqyosidagi muvaffaqiyatlari e’tirofidir.

O‘qituvchi va murabbiylarning malakasini oshirish, mahoratini kuchaytirishga qaratilgan ishlar joriy o‘quv yilida ham jadal davom etdi. Pirovardida 500,4 ming nafar pedagog o‘z tajribasini kengaytirdi va malaka sertifikatiga ega o‘qituvchilar soni esa 37 ming 844 nafarga yetdi. Shu bilan birga, 500 nafar xorijlik mutaxassisning jalb etilgani ham jahon standartlariga mos ravishda darslar o‘tish imkonini taqdim qildi.

— Yoshlarni ta’lim olish bilan birga hunarga o‘rgatish ham dolzarb masalalardan biri, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i Erkin Murodov. — Joriy o‘quv yilida mazkur yo‘nalishda ham qator yangiliklar amalga oshirildi. Hayotga tatbiq qilingan o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimi bu boradagi ishlarning poydevori bo‘ldi. Natijada har bir tuman yoki shaharda bittadan, jami 208 ta maktabda 17 ming 82 nafar 10-sinf o‘quvchisiga 3 ta yo‘nalishda kasb-hunar o‘rgatish imkoni paydo bo‘ldi.

Mamlakatimiz bo‘ylab 563 ta maktabda qurish-ta’mirlash ishlari amalga oshirilgani va qo‘shimcha 118 mingta yangi o‘quv o‘rinlari yaratilgani kelajak avlod vakillarining yorug‘ va shinam, zamonaviy jihozlangan sinfxonalarda saboq olish imkonini yaratdi. Shuningdek, 1 797 ta ta’lim muassasasiga qayta tiklanuvchi quyosh elektr panellari va quyosh suv isitish qurilmalari o‘rnatilgani, ayniqsa, ichimlik suvi tashib keltiriladigan 53 ta umumta’lim maktabi uzluksiz toza ichimlik suvi bilan ta’minlangani ham qator qulayliklarni taqdim etib, qancha ko‘ngillarga yorug‘lik olib kirdi.

…“So‘nggi qo‘ng‘iroq” sadolari o‘quvchilarning xuddi qaldirg‘ochlar kabi katta hayotga uchirma bo‘lganidan dalolat. Bugun ularning qalbida katta orzu va maqsadlar chechak otgan, qadamlari har qachongidan dadil, o‘ziga ishonchi ham yuksak. Shubhasiz, 11 yil davomida jonajon maktabidan olgan mehri va qadrdon ustozlarining saboqlari ularga bir umr yo‘ldosh bo‘lajak.

**Rahmatjon BOBOJONOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

REKLAMA

## O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI QUYIDAGI KAFEDRALAR BO‘YICHA LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI:

— O‘zbek musiqasi tarixi kafedrasi: kafedra mudiri – 1 o‘rin;
— Orkestr dirijyorligi kafedrasi: dotsent – 1 o‘rin;
— Fakultetlararo fortepiano ijrochiligi kafedrasi: dotsent – 1 o‘rin;
— Konsertmeysterlik mahorati kafedrasi: dotsent – 1 o‘rin, o‘qituvchi – 1 o‘rin;
— Akademik xonandalik va opera tayyorlovi kafedrasi: katta o‘qituvchi – 1 o‘rin, o‘qituvchi – 3 o‘rin;
— Torli cholg‘ular kafedrasi: katta o‘qituvchi – 1 o‘rin, o‘qituvchi – 3 o‘rin;
— Xalq cholg‘ularida ijrochilik kafedrasi: o‘qituvchi – 2 o‘rin;
— O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi: o‘qituvchi – 1 o‘rin.

**Tanlovda ishtirok etish uchun da’vogarlar quyidagi hujjatlarni taqdim qilishi lozim:**

— rektor nomiga ariza;
— xodimlar shaxsiy varaqasi;
— oliy ma’lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarning nusxalari;
— o‘quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari ro‘yxati;
— mutaxassislik bo‘yicha oxirgi uch o‘quv yilida malaka oshirganligi to‘g‘risidagi guvohnoma va sertifikatlar nusxasi.

Arizalar e’lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida O‘zbekiston davlat konservatoriyasining xodimlar bo‘limi tomonidan qabul qilinadi.

**Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, B. Zokirov ko‘chasi, 1-uy.**

## Respublika olimpiya zaxiralari tennis maktabi (ROZTM)

*2013 va 2014-yillarda tug‘ilgan, umumta’lim maktablarining 4-sinfini bitirgan, tennis bo‘yicha tayyorlov guruhida kamida 3-yil shug‘ullangan, shuningdek, 2012 va 2013-yillarda tug‘ilgan, 5-sinfni bitirgan, Respublika kubok va chempionatlari g‘olibi va sovrindori bo‘lgan O‘zbekiston tennis federatsiyasi reytingiga ega o‘g‘il va qiz bolalar uchun qabul e’lon qilinadi.*

Hujjatlar 2024-yil 1-iyuldan 31-iyulga qadar quyidagi manzilda qabul qilinadi: 100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, ROZTM.

Tanlov-test sinovlari 2024-yil 5-avgustdan boshlanadi.

To‘liq ma’lumotni Respublika olimpiya zaxiralari tennis maktabidan olishingiz mumkin.

**Respublika olimpiya zaxiralari tennis maktabi telefonlari:**
**71-208-94-96, 97-380-86-66.**

**O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi Respublika ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati 2024/2025-o‘quv yiliga 2017-yilda tug‘ilgan iqtidorli o‘g‘il va qiz bolalarni tasviriy san’at va musiqa yo‘nalishlari bo‘yicha 1-sinfga rus va o‘zbek tillarida o‘qish hamda 5-sinfga o‘zbek tilida o‘qish uchun tanlov asosida qabul qiladi.**

Ariza va hujjatlar 2024-yil 1-iyundan 30-iyungacha maktab-internat binosida qabul qilinadi.

Qabul imtihonlari 2024-yil 1-iyuldan boshlanadi.

2023/2024 o‘quv yilida mamlakatimizdagi 10 mingdan ortiq umumta’lim maktablarining 11-sinfini 400 mingga yaqin o‘quvchilar bitirmoqda.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 23.10 Topshirildi — 02.15 1 2 3 4 5 6